

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Sh.Shermuhammadov, B.Q.Qurbanova

Bo'lajak pedagoglarni kompetensiyaviy yondashuv asosida pedagogik faoliyatga tayyorlash mexanizmini rivojlantirish.....7

I.Tuychiyeva, Z.Axunova

Yuqori sinf o'quvchilarining ma'naviy kompitentligini rivojlantirishning pedagogik asoslari.....10

D.R.Yuldasheva

Bo'lajak vokal o'qituvchilari kasbiy faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan omillar.....14

A.R.Saydullayeva, B.Mahmudova

Yuqori sinf o'quvchilarini ijtimoiy hayotga tayyorlashda gender yondashuvning ahamiyati20

I.I.Soliyev

Oliy ta'lif muassasalari boshqaruvida institutsional mustaqillikni shakllantirish bosqichlari26

Sh.D.Xonbabayev

Bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda milliy va umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirishga tayyorlashning pedagogik asoslari31

M.S.Xoshimov

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati.....36

L.Z.Xolmurodov

Boshlang'ich sinf o'quvchilari koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirishning modulli texnologiyasi.....41

A.Sh.Bazarbayeva

Chet tillarini o'qitishda mashqlar tipologiyasi va tizimiga qo'yilayotgan zamonaviy talablar.....45

N.Sh.Abdiyeva

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi54

F.A.Boltayeva

Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida kuest texnologiyasi orqali tadqiqiy bilish va refleksiv faoliyatni rivojlantirish imkoniyatlari.....59

M.E.Maziyayeva

Maktabgacha ta'lifmda neyropedagogika imkoniyatlaridan foydalanish63

D.D.Boymirzayeva

Oliy ta'lif muassasalarida tashkiliy va boshqaruv mexanizmlarining zamonaviy modellari67

M.O.Ismailova

Kitobxonlik madaniyati - inson umr yo'llarini yorituvchi so'nmas nur71

G.O.Shaxbazova

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining sport estetikasiga doir bilimlarini rivojlantirishning jismoniy-tarbiyaviy mazmuni75

M.F.Bekchonova

Fanlararo hamkorlikda biologiya yo'nalishi talabalarining biologik xavfsizlikni ta'minlashga doir bilimlarini rivojlantirishning nazariy jihatları79

X.A.Ibragimov

Ta'lif muassasalarida jismoniy tarbiya va sport tadbirlarining samarali shakllari83

A.T.Nazarov

Sport turizmi tavsifi va undan bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarini tayyorlashda foydalanish88

D.M.Xusanov

O'quvchilarni harbiy ideal haqidagi bilimlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish zaruriyati92

Y.Y.Turakulov

Ta'lifda raqamli texnologiyalarning pedagogik faoliyatga ta'siri.....96

Sh.G'.Xasanov

Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda pedagogik hamkorlikni loyihalashtirishning nazariy jihatları.....102



УО'К: 37.018.1

**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARI KOORDINATSION QOBILIYATLARINI
RIVOJLANTIRISHNING MODULLI TEXNOLOGIYASI**

**МОДУЛЬНАЯ ТЕХНОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ КООРДИНАЦИОННЫХ СПОСОБНОСТЕЙ
МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ**

**MODULAR TECHNOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF COORDINATION ABILITIES
OF PRIMARY SCHOOL PUPILS**

Xolmurodov Laziz Zarifboyevich

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha direktor o'rinnbosari

Аннотация

Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining darsdan tashqari mashg'ulot jarayonini samarali tashkil qilish hamda ularning jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligi inobatga olgan holda koordinatsion qobiliyatlarini rivojlanterish uchun modulli texnologiyasi amaliyotga tatbiq qilingan.

Аннотация

В данной статье была применена на практике модульная технология для эффективной организации процесса внеурочной деятельности учащихся начальных классов и развития их координационных способностей с учетом их физического развития и физической подготовленности.

Abstract

In this article, modular technology was applied in practice for the effective organization of the extracurricular activities of primary school students and the development of their coordination abilities, taking into account their physical development and physical fitness.

Ka'lit so'zlar: darsdan tashqari mashg'ulot, koordinatsion qobiliyatlar, modulli texnologiya, boshlang'ich sinf, bolalar.

Ключевые слова: внеклассная деятельность, координационные навыки, модульная технология, начальная школа, дети.

Key words: extracurricular activities, coordination skills, modular technology, elementary school, children..

KIRISH

Mavzuning dolzarbliji. Jismonan barkamol avlodni shakllantiruvchi jismoniy madaniyat mutaxassisini tayyorlash ta'lim tizimiga zaruriy talablarni qo'yadi. Uning tagzamini esa umumiyl o'rta ta'lim tizimida qo'yiladi. *Xalqimiz azal – azaldan farzandlarining jismoniy va ma'naviy jihatdan sog'лом bo'lib, jamiyatda munosib o'rin egallashini oliy maqsad deb biladi. Ana shu ezgu niyat tom ma'noda o'zining ijobatini topdi.*

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan, Yangi O'zbekiston taraqqiyotining strategiyasi ishlab chiqildi. Unda, "Jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlanterish aholi salomatligini ta'minlashda muhim omildir" deb baho berilgan. Shu bilan bir qatorda 2022-2026 yillarga mo'ljalangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 67-maqсадида; "Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanadigan fuqarolarining sonini oshirish" ko'rsatilib, jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanadigan aholi sonini 2026 – yilda 33 foizga chiqarish belgilangan. Ayniqsa prezident Shavkat Mirziyoyevning joriy yilning 1-apreldagi ommaviy sportni rivojlanterishga bag'ishlangan maxsus yig'ilishida, 7 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlarni ommaviy sport bilan shug'ullanuvchilar sonini 6 millionga yetkazish, 2022-yil 20-dekabrda O'zbekiston xalqiga, Oliy-majlis deputatlariiga, Senatorlarga murojaatida: "Turli yoshdagi kishilar uchun jismoniy mashqlarni o'rgatish ishlari yo'q"ligi to'g'risida alohida ko'rsatmalar berildi. Mamlakatni 2023 yilgi taraqqiyot strategiyasi dasturida, jismoniy tarbiya va sportga nihoyatda keng o'rin berildi

Pedagogik texnologiya bu — butun o'quv jarayonini yaratish, qo'llash, aniqlash, harakat faoliyatini va inson resurslarini hamda ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda bilimlarni o'zlashtirishning tizimli usuli bo'lib, uning vazifasi ta'lif shaklini optimallashtirishdir.

ADABIYOTLAR TAHLILII VA METODLAR

Boshlang'ich sinf o'quvchilar koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari ko'pgina olimlar tomonidan o'rganilgan. Masalan, F.N.Nasriddinov, R.S.Salomov, T.S.Usmonxo'jayev, M.Y.Yunusova, Ye.Y.Bondarevskiy, F.Xo'jayev kabi olimlarning tadqiqotlarida bolalarning jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligi, harakat faolligining sustligi aniqlangan. Shu bilan birga pedagogika fani ham yoshlarning jismoniy tarbiyasi, muntazam olib boriladigan mashg'ulotlar orqali jismoniy tarbiyaga ehtiyoj va qiziqishni uyg'otish muammolariga hamisha diqqat qilib kelmoqda.

Ta'lif jarayonida qo'llanilishiga ko'ra, pedagogik texnologiya — bu pedagogik faoliyatning ketma-ketligi va mantig'ini aks ettiruvchi uyushgan faoliyatlar tizimi bo'lib, uning bajarilishi rejalashtirilgan natijalarni olishni kafolatlaydi va har doim faoliyatning bosqichlari bilan ifodalanadi, shuning uchun ularning har biri o'z maqsadiga ega. Muhibi shundaki, birinchi bosqich har doim diagnostik bo'lib, u an'anaviy o'qitish uslubiyatdan o'ziga xos xususiyatga ega.

Pedagogik texnologiyaning mazmuni uchta asosiy qismni tashkil etadi: konseptual asos; protsessual xususiyatlari (ishlab chiqilgan texnologiyaning o'ziga xos xususiyatlari); texnologiyani amalga oshirishni ta'minlash vositalari.

Ko'pgina olimlar fikriga ko'ra, ta'lif amaliyotida "pedagogik texnologiyalar" tushunchasi uch darajada qo'llanilishini ta'kidlaydi:

1. Umumiy pedagogik (umumiy didaktik) daraja ma'lum bir ta'lif darajasida, ta'lif muassasasida o'quv jarayonini tavsiflaydi.

2. Xususiy uslubiy (fan sifatida) darajasida bitta fan doirasida o'qitish va tarbiya mazmunini amalga oshirish usullari va vositalari majmuasi.

3. Modulli daraja – ta'lif jarayonining alohida qismlari texnologiyasi, xususiy didaktik va tarbiyaviy vazifalar kabilardir.

Ta'lif-tarbiya nazariyasida modul deganda bo'lajak mutaxassisning kasbiy bilim va ko'nikmalarini shakllantirish uchun yetarli bo'lgan ma'lum bir ma'lumot yoki harakatning aniq "me'yori" tushuniladi.

Zamonaviy tadqiqotchilar modulni belgilangan didaktik maqsadlarga erishishni ta'minlaydigan o'quv-mashg'ulot jarayonida belgilangan vazifalarning mantiqiy tugallangan birliliklari bo'lgan ma'lumotlar bloki sifatida tavsiflaydi. Zamonaviy pedagogikada "modulli texnologiya" (modulli o'qitish) tushunchasi o'quv faoliyatining amalga oshirilishini uyushgan o'quv jarayoni sifatida ochib beradi, unda ma'lumotlar qismlarga (modullarga), nisbatan to'liq mustaqil birliklarga bo'linadi, bu yerda bir nechta modullarning kombinatsiyasi ma'lum bir tuzilishining mazmunini yoki barcha o'quv intizomini ochib beradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Modulli texnologiyani ishlab chiqishda jismoniy tayyorgarlikning muhim nazariy sharti sifatida insonning jismoniy yuklamaga moslashishi nazariysi, ya'ni hayotiy o'zgaruvchan va takrorlanadigan tashqi omillar ta'siri ostida yuzaga keladigan hamda barqaror rivojlanishga ega bo'lgan kamulikatif moslashuv xususiyatlariga asoslanadi. Ma'lum bo'lishicha, xuddi shu mashqlarni takrorlash bilan berilgan yuklama shiddati faqat ma'lum vaqt davom etadi, shundan so'ng ta'sir qilish darajasi susayadi, mashg'ulot sifati pasayadi, tananing intensiv rivojlanishi yuzaga kelmaydi.

Kumulatif moslashuv jarayonida organizmning moslashtirilgan tizimlarini sifat jihatidan yangi holatga o'tishi, organizmning faol o'sishi va rivojlanishi yuzaga keladi.

Qolaversa, insonning jismoniy yuklamaga moslashish jarayonining xususiyatlariga asoslanib, ma'lum ta'sirlarni aniq tanlash mumkin: davomiy yuklamalar, maqsadli harakatning maxsus koordinatsion takrorlovchi elementlari, takrorlanish chastotasi, davomiyligi va sonini aniqlash, ongli ravishda insonning harakat funksiyasining yangi belgilarini shakllantirish, ya'ni dasturlash va uning rivojlanishini ma'lum bir yo'nالishda amalga oshirish.

Yuqoridagi izlanishlar asosida biz boshlang'ich sinf o'quvchilarda koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirishda modulli texnologiyani qo'llash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarda koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirishning modulli texnologiyasini tuzilishi *maqsad, konseptual asos, mazmunli, protsessual va samarali – baholash* kabi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi.

PEDAGOGIKA

Belgilangan mashg'ulotlar soni moslashish bosqichlarining (o'tish va doimiy) birlashishi bilan bog'liq bo'lib, ular mashg'ulot jarayonining siklik xususiyatini shakllantiradi, bu jismoniy mashqlar ko'rsatkichlarini bosqichdan bosqichga zaruriy o'zgarishlarining biologik asosi hisoblanadi.

Shuningdek, har bir modulda koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshiriladi: kirish bosqichida – yangi harakat elementlarini bo'laklarga bo'lib o'rgatish 15-20 daqiqa davomida 3 ta mashg'ulot, rivojlantirish bosqichida — asosiy bosqich 20-25 daqiqa davomida 9 ta mashg'ulot, yakuniy bosqichda — olingan natijalarni baholash 1 ta mashg'ulot 40-45 daqiqa davom etadi.


Tadqiqotning maqsadi modulli texnologiyani darsdan tashqari mashg'ulotlarda qo'llash orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirishdan iborat.

Tadqiqot ishining vazifalari:

- ✓ mavzuga doir ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish;
- ✓ boshlang'ich sinf o'quvchilarining darsdan tashqari mashg'ulotlarini rejalashtirish uchun maxsus jismoniy mashqlar majmuasini ishlab chiqish;
- ✓ darsdan tashqari mashg'ulotlarda modulli texnologiyani qo'llash orqali bolalarning koordinatsion qobiliyatları rivojlanish samaradorligini tajribada asoslash.

Tadqiqot uslublari: ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili, pedagogik kuzatuv, pedagogik testlash va matematik statistik kabi uslublardan foydalananilgan.

Modulli texnologiya bosqichlarini amalga oshirish uchun ajratilgan vaqt mashg'ulot jarayonining kirish qismida organizmni qanchalik asosiy qismiga tayyorlab olishga bog'liq. Bu mashg'ulotning davomiyligi 45 daqiqa bo'lgan holda, o'quvchilarining yoshini, tayyorgarlik darajasini va modulli texnologiyani amalga oshirish jarayonida qo'yilgan vazifalarni inobatga olgan holda umumiy hisobda 5-10 daqiqaga organizmni qizdirib olishga beriladi. Organizmni qizdirib olish uchun belgilangan vaqtga qat'iy rioya qilish lozim: min. – 10 daqiqa, maks. – 15 daqiqa.



1-rasm. Boshlang'ich sinf o'quvchilar koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirishning modulli texnologiyasi

Mashg'ulot jarayonini boshqarish o'qituvchining bolalar bilan maqsadga muvofiq o'zaro munosabatlarini o'z ichiga oladi. Ya'ni buning natijasida jismoniy tarbiyalash, shug'ullanish uchun yetarli bo'lgan muhitni yaratish, hissiy psixologik va o'zaro kelishuv munosabatlarini rivojlanтирish, harakat ko'nikma va malakalari shakllantirish hamda jismoniy tarbiya darslariga va sport to'garaklariga bo'lgan qiziqishlari oshirishga hissa qo'shami (1-rasmga qarang).

Mazkur taklif etilayotgan texnologiyaning samaradorligini harakat amalini samarali-baholash komponenti belgilaydi, o'rganilayotgan qobiliyatlarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda boshlang'ich sinf o'quvchilarida koordinatsion qobiliyatları rivojlanish darajasini aniqlashning yaxlit tizimini tashkil etadigan tegishli mezonlar va ko'rsatkichlarni tanlash bilan asoslanadi. Shuningdek, jismoniy tayyorlarlik, salomatlik darajasi, motivatsiya va jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga bo'lgan qiziqish, bolalarning yosh ko'rsatkichlarini belgilovchi asosiy jismoniy harakat faoliyati samaradorligi hisoblanadi.

XULOSA

Shunday qilib, ishlab chiqilgan modulli texnologiya o'qituvchining pedagogik vositasi bo'lib, uning muvaffaqiyatini belgilovchi turli omillar ta'sirini hisobga olgan holda faoliyatni samarali boshqarish va bolalarga ta'sir o'tkazish imkonini beradi. Darsdan tashqari mashg'ulot jarayonidagi o'zaro ta'sirga motivatsion e'tibor, bolalarning faolligi va o'zini o'zi boshqarishini ta'minlaydi, o'qituvchi va bolalarning birgalikdagi faoliyati amalga oshiriladigan mashg'ulot maydoni, bolalar o'rtasidagi hissiy va psixologik munosabatlar hamda ularning yoshga xos imkoniyatlarini rivojlanтирish to'g'risida yaxlit tasavvurni shakllantirishga yordam beradi.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, boshlang'ich sinf o'quvchilarini darsdan tashqari mashg'ulotlarga qiziqishini oshirish, ularning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda koordinatsion qobiliyatlarini rivojlanтирish uchun zamonaviy vosita va usullarni izlab topish hamda mashg'ulotlar jarayoniga tatbiq qilish soha olimlari izlanayotgan muhim vazifalardan biri sifatida qolmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Умумий ўрта, ўрта маҳсус ва касб-хунар таълими тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Фармони. 2018 йил 25 январдаги ПФ-5313-сон.
2. Kerimov F.A. Sportda ilmiy tadqiqotlar. Darslik. Toshkent: "Ilmiy tekniqa axboroti – press nashriyoti" 2023. – 380 b.
3. Борисенко О.В. Модульная технология развития координационных способностей юных дзюдоистов на спортивно-оздоровительном этапе. кан.пед.наук.дисс. Сургут. 2017.-С. 58-62.
4. Лях В.И. Развитие координационных способностей у дошкольников. изд., «Спорт» — М.: 2016. – 96 с.
5. Usmonxajayev T.S., Islomova S.T. Maktabgacha ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya T.: "Ilm Ziyo" nash. 2006. – 184 c.
6. Xolmurodov L.Z. Developing the coordination skills of primary class students //MENTAL ENLIGHTENMENT SCIENTIFIC – METHODOLOGICAL JOURNAL. – 2022. – №. 6. – P. 54-60.
7. Xolmurodov L.Z. Effectiveness of the development of function keeping right balance in primary class students // MENTAL ENLIGHTENMENT SCIENTIFIC – METHODOLOGICAL JOURNAL. – 2023. – №. 2. – P. 215-220.
8. Холмуродов Л.З. Бошланғич синф ўқувчиларининг мувозанат сақлаш функциясини ривожлантириш самарадорлиги //Sportda ilmiy tadqiqotlar. – 2023. – №. 3. – В. 68-72.
9. Холмуродов Л.З. Бошланғич синф ўқувчиларининг координацион қобилиятларини ривожлантириш // Sportda ilmiy tadqiqotlar. – 2023. – №. 4. – В. 3-7.